



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV» AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG'I**

2024 yil “05” 08

72 – son

Toshkent shahri

**“Monopoliyaga qarshi komplayens
tizimini joriy etish to‘g‘risida”**

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonuni 9-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagи “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 114-sonli qaroriga muvofiq,

B U Y U R A M A N

1. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimi uchun Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘lim boshlig‘i mas‘ul etib tayinlansin.
2. Jamiyatning monopoliyaga qarshi komplayens tizimi nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Jamiyatning monopoliyaga qarshi komplayens tizimining 2024-yil uchun “Yo‘l xarita”si 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda har yillik yangilab borilishi ta’minlansin.
4. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

Sh. Alimov

“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ boshqaruv
raisingning 2024-yil “05 august dagi
72-son buyrug‘iga 2-ilova

**“O‘zbek geologiya qidiruv” AJ tizimida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari
talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha 2024-yilga mo‘ljallangan
“YO‘L XARITASI”**

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas’ul ijrochilar
1.	Raqobat qonunchiliga kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish, shuningdek, qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlardan kelib chiqib, idoraviy hujjatlarni muvofiqlashtirish yuzasidan rahbariyatga takliflar kiritish	<p>Tizimli ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari kiritilayotgan o‘zgarishlarni o‘rganib borish.</p> <p>Korxonada raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni tahlil qilish.</p>	Doimiy Doimiy	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi
2.	Korxona xodimlari orasida “Monopoliyaga qarshi qonunchilik va unga amal qilish” mavzusida seminarlar va muloqotlar o‘tkazish	<p>Korxona xodimlari orasida raqobat qonunchiligi va uning buzilish ehtimollari hamda unga kiritilayotgan o‘zgarishlar, yangiliklar to‘g‘risida seminar-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish va o‘tkazilgan tadbirlarni OAVlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali doimiy yoritib borish.</p> <p>Faoliyat davomida xodimlarga muntazam ravishda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog‘liq masalalar bo‘yicha maslahatlar berib borish.</p>	Bir yilda kamida 2 marta Doimiy	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi
3.	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish ehtimolligini aniqlash va baholash	<p>Oxirgi 3-yil davomida monopoliyaga qarshi organ tomonidan o‘tkazilgan tekshirishlar, aniqlangan qoidabuzarliklar, berilgan taqdimnomalarni o‘rganish.</p> <p>Korxona o‘z ustun mavqeini suiste’mol qilishi va (yoki) raqobatni cheklashi mumkin bo‘lgan holatlarni o‘rganish.</p>	Har yili dekabr oyiga qadar Har chorakda	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		O'tkazilgan o'rganishlar va tahlillar natijasida qonunchilik buzilishi mumkin bo'lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida taqsimlash hamda bu yuzasidan monopoliyaga qarshi organga axborot kiritish.	Har chorakda	
4.	Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash va ularning oldini olish	<p>Faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste'molchilarining huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki hujjatlarni xatlovdan o'tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqish.</p> <p>Korxona tomonidan chiqariladigan hujjatlar (qaror, farmoyish, buyruq, yig'ilish bayonlari va boshqalar) loyihalarini doimiy o'rganib borish. Bunda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish.</p> <p>Raqobat cheklarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.</p> <p>Korxona tomonidan tanlov (tender) va birja savdolari o'tkazilishida raqobat to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan belgilangan tartibda nazoratni amalga oshirish.</p> <p>Korxona (tarkibiy bo'linmali) va boshqa yuridik shaxslar o'rtasida tuziladigan shartnomalarni o'rganib borish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga ularni tovar yoki moliya bozorida faoliyat ko'rsatayotgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan afzal holatga qo'yadigan imtiyozlar, preferensiyalar va yengilliklarni asossiz ravishda berish holatlarining; 	Doimiy	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'limi

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		<p>- ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyati uchun boshqa kamsituvchi yoki imtiyozli shartlar (sharoitlar) belgilash holatlarining;</p> <p>- til biriktirish va kartel kelishuvlar sodir etilishining oldini olish.</p> <p>Monopol korxona tomonidan sotiladigan, ular bo'yicha ushbu subyektning ustun mavqeい e'tirof etilgan tovarlarga (ishlarga, xizmatlarga) monopol yuqori va monopol past narxlar o'rnatilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan harakatlarni o'rganish.</p> <p>Iqtisodiy konsentratsiyaga oid tuziladigan bitimlarni nazorat qilish. Bunda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - xo'jalik yurituvchi subyektlarni qo'shib yuborish va qo'shib olishga doir bitimlar tuzilishida; - xo'jalik yurituvchi subyektning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) aksiyalarni (ulushlarni) olishga doir bitimlar tuzilishida monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinishini nazorat qilib borish. <p>Davlat ishtirokidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarni, shuningdek, ularning affillangan shaxslari yoki xo'jalik faoliyatini amalga oshirish vakolatlari berilgan davlat muassasalarini tashkil etishda (qayta tashkil etishda) monopoliyaga qarshi organning oldindan roziligi olinishini nazorat qilib borish.</p> <p>Insofsiz raqobat holatlariga yo'l qo'ymaslik. Bunda xo'jalik yurituvchi subyektning yoki shaxslar guruhining iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda afzalliklarga ega bo'lishga qaratilgan, qonunchilikka, ish muomalasi odatlariga zid bo'lgan hamda boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga (raqobatchilarga) zarar yetkazadigan yoki zarar yetkazishi mumkin bo'lgan yoxud ularning ishchanlik obro'siga putur yetkazadigan</p>		

T/r	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Amalga oshirish mexanizmi va bosqichlari	Muddat	Mas'ul ijrochilar
		<p>yoki putur yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlariga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish.</p> <p>Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish xavfi yuqori bo‘lgan korxona tarkibiy bo‘linmalari ro‘yxatini shakllantirish hamda doimiy nazorat qilib borish.</p>		
5.	Monopoliyaga qarshi komplayens tizimi faoliyati yuzasidan yillik hisobotni tayyorlash	<p>1. Monopoliyaga qarshi komplayens bo‘yicha hisobot tayyorlash:</p> <p>raqobat to‘g‘risidagi qonun buzilishi xavfini baholash natijalari to‘g‘risida;</p> <p>raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari buzilishi xavfini kamaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi to‘g‘risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplayensning asosiy ko‘rsatkichlariga erishish to‘g‘risida;</p> <p>monopoliyaga qarshi komplayens faoliyatining samaradorligini baholash uchun asosiy ko‘rsatkichlarni hisoblash to‘g‘risida.</p> <p>2. Monopoliyaga qarshi komplayens to‘g‘risidagi hisobotni rasmiy veb-saytga joylashtirish va monopoliyaga qarshi organiga yuborish.</p>	<p>Har yili 15-dekabrga qadar</p> <p>Har yili 25-dekabrga qadar</p>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi
6.	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan doimiy axborot almashinuvini amalga oshirish	Monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan elektron pochta, telegram va rasmiy veb-sayt orqali yangi loyiha va takliflar bo‘yicha axborot almashish.	Doimiy	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi
7.	Keyingi yilga mo‘ljallangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini monopoliyaga qarshi organ bilan kelishgan holda ishlab chiqib tasdiqlash.	Bir yilga mo‘ljallangan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo‘yicha “Yo‘l xarita”sini monopoliyaga qarshi organ bilan kelishgan holda ishlab chiqib tasdiqlash.	<p>Har yili 25-dekabrga qadar</p>	Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi